

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNALOGIYALAR VA KADRLAR ROLI

Kamoldinova Mubinabonu

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti
sotsiologiya yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13137600>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lif samaradorligini oshirishda sifat nazoratini tashkil etish va bunda o'qituvchining asosiy vazifasi nimalardan iboratligi, shuningdek ta'lif sifati va uni belgilovchi omillar hamda uni amalga oshirishda o'qituvchi-pedagoglarning asosiy vazifalari haqidagi fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion texnalogiyalar, intraktiv metodlar, pedagog, tajriba, sinov, dars samaradorligi.

THE ROLE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND PERSONNEL IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION

Abstract. This article discusses the organization of quality control in improving the effectiveness of education and what the main task of the teacher is, as well as the quality of education and its determining factors, as well as the main tasks of teachers-pedagogues in its implementation.

Key words: Innovative technologies, interactive methods, pedagogue, experience, test, lesson efficiency.

РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И КАДРОВ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматривается организация контроля качества в повышении эффективности образования и какова основная задача учителя, а также качество образования и его определяющие факторы, а также основные задачи учителей-педагогов при его реализации.

Ключевые слова: Инновационные технологии, интерактивные методы, педагог, опыт, тест, эффективность урока.

Bugungi davr talabi ta'lif va tarbiyada ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda ilg'or tajribalarini joriy etish natijasida ta'lif samaradorligini oshirishdan iborat bo'lib, bunda o'qituvchi-pedagoglar o'z bilimlarini doimo oshirib borishlari, innovatsion va interfaol usul hamda pedagogik texnologiya metodlarini puxta o'zlashtirib olgan holda ulardan o'z kasbiy

faoliyatida samarali foydalanishni taqozo etmoqda.

Hozirgi kunda ta'lif jarayonida innovatsion texnologiyalar, intraktiv metodlar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zлari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, taxlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zлari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakillanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchlik funksiyasini bajaradi. Innovatsion texnologiyalarning o'rni va ro'li benihoyakattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog maxoratiga oid bilim, tajriba va intraktiv metodlar o'quvchi-talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

INNOVATSIYA (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar -bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lif mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning oziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi

Ta'lif yangi bosqichga ko'tarilmoqda, o'quvchilar fikr darajasi kengaymoqda, axborot olish osonlashmoqda, bunday o'sish jarayonida o'qitishda innovatsion texnalogiyalardan foydalanish darsning samaradorligini oshiradi. Bugungi kunda axborot ko'lami juda kengayib ketdi. Agar o'qituvchi o'z ustida ishlamasa avvalgi o'rgangan bilimlari yetarli bo'lmay qoladi. Dars mavzularini kundalik hayotdagи keskin voqealar bilan bog'lab o'tilsa, turli innovatsion texnalogiyalardan foydalanilsa dars esda qolishiga erishilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga innovatsion usullardan foydalanib, fanlar aro bog'langan holda ekologikgigiyenik bilimlar bilan darsni to'ldirishi zarur.

Xulosa qilib aytganda innovatsion texnologiya – bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba – sinov ishlarini olib borish yoki bashqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda o'quvchilarga yangi bilim berishdan iboratdir. Bundan tashqari interfaol usullar orqali ta'lif samaradorligi oshadi, o'qituvchi va talaba o'rtasida o'zaro hamkorlik; talabalarda erkin ijodiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi va shakllanadi. Bu innovation yondashuvda talaba shaxsi ta'limda markaziy figuraga aylanadi.

REFERENCES

1. SH.M.Mirziyoev “Erkin va farovon, demokratik o’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” T.: O’zbekiston-2016.
2. Xodjaboev A. Xusanov L. Kasbiy ta’lim metodologiyasi. T.: Fan va texnologiyalar, 2007.
3. A. Abduqodirov, R. Ishmuhammedov. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar” T.: 2008. – 128 b.